




## **TASHQI SAVDO SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KOREYA TAJRIBASI**

**Kazakov Mansurbek Qadamboy o'g'li**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston

Milliy Universiteti talabasi

+998883190305, mansurbekkazakov0@gmail.com

**Atoev Navro'zbek Rinatovich**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston

Milliy Universiteti talabasi

+998910751463, standoffcnx@gmail.com

**Xamrayeva Sevinch Ikromjonovna**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston

Milliy Universiteti talabasi

+998990181066., sarvarxamrayev790@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21623488>

### **ARTICLE INFO**

Qabul qilindi: 12-iyul 2026 yil

Ma'qullandi: 15-iyul 2026 yil

Nashr qilindi: 27-iyul 2026 yil

#### **KEY WORDS**

tashqi savdo  
samaradorligi, Janubiy Koreya,  
ilmiy-tadqiqot va tajriba-  
konstruktorlik ishlanmalari  
(R&D), innovatsiyalar, yuqori  
texnologiyali mahsulotlar,  
eksport, ekonometrik tahlil,  
raqobatbardoshlik, sanoat  
siyosati.

### **ABSTRACT**

*Mazkur maqolada Janubiy Koreyaning tashqi savdo samaradorligini oshirish tajribasi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga (R&D) yo'naltirilgan investitsiyalar hamda yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportini rivojlantirish nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Tadqiqotda R&D xarajatlarining innovatsion salohiyatni oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport tarkibini takomillashtirishdagi o'rni yoritilgan. Mazkur jarayonni asoslash maqsadida Janubiy Koreyaning R&D xarajatlari, yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti va tashqi savdo ko'rsatkichlariga oid statistik ma'lumotlar dinamik tahlil qilingan. Shuningdek, R&D xarajatlari va eksport hajmi o'rtasidagi bog'liqlik ekonometrik usullar asosida baholanib, ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir empirik jihatdan isbotlangan. Tadqiqot natijalari ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga yo'naltirilgan investitsiyalarni ko'paytirish yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti ulushining ortishiga, mamlakatning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi va tashqi savdo samaradorligining sezilarli darajada oshishiga xizmat qilishini ko'rsatadi.*

**KIRISH**

Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarining jadallashtirish, xalqaro raqobatning kuchayishi hamda innovatsion rivojlanish omillarining ustuvor ahamiyat kasb etishi mamlakatlar tashqi savdo siyosatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zamonaviy sharoitda tashqi savdo samaradorligi nafaqat eksport hajmining ortishi, balki eksport tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatga ega va yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushining ko'payishi bilan ham belgilanadi. Shu bois iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga (Research and Development – R&D) katta miqdorda investitsiya yo'naltirish orqali innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirmoqda. Bu esa xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni oshirish va tashqi savdo samaradorligini ta'minlashning muhim omiliga aylanmoqda.

Janubiy Koreya innovatsion rivojlanish uchun zarur bo'lgan inson kapitali va ilmiy-tadqiqot xarajatlari bo'yicha dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlarga ega mamlakatlardan biridir. OECD davlatlari orasida oliy ma'lumotga ega bitiruvchilarning ulushi eng yuqori bo'lib, ularning aksariyati fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) yo'nalishlarida tahsil olgan mutaxassislardir. Ayniqsa, yosh avlod raqamli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lgani sababli, korxonalar yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga tezkor joriy eta oladi. Inson kapitalidan tashqari, innovatsiyalarni moliyalashtirish darajasi ham juda yuqori bo'lib, yalpi ichki ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari xarajatlari) 2024-yilda YalMning 5 foizini<sup>[1]</sup> tashkil etgan va bu ko'rsatkich bo'yicha Janubiy Koreya dunyoda ikkinchi o'rinni egallagan<sup>[2]</sup>. Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, eksport tarkibini takomillashtirish hamda yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirish strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan Janubiy Koreyaning R&Dga asoslangan eksport modeli va uning tashqi savdo samaradorligiga ta'sirini chuqur o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirilgan investitsiyalar orqali yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha to'plangan tajriba O'zbekiston uchun eksport salohiyatini oshirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni mustahkamlashda muhim yo'nalishlardan biri bo'lishi mumkin.

Mazkur maqolaning maqsadi Janubiy Koreyada ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga yo'naltirilgan investitsiyalarning tashqi savdo samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish hamda R&D xarajatlari va eksport hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik usullar yordamida baholashdan iborat. Tadqiqot davomida Janubiy Koreyaning R&D xarajatlari, yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti va tashqi savdo ko'rsatkichlariga oid statistik ma'lumotlar dinamik tahlil qilinadi, shuningdek, ekonometrik model asosida R&D investitsiyalarining eksport hajmiga ta'siri empirik jihatdan asoslab beriladi.

**TADQIQOT METADOLOGIYASI**

Mazkur tadqiqotda Janubiy Koreyaning tashqi savdo samaradorligini oshirish tajribasi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga (R&D) yo'naltirilgan investitsiyalar hamda yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida o'rganildi. Tadqiqotda tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, dinamik tahlil hamda ekonometrik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning empirik qismida R&D xarajatlari va eksport hajmi o'rtasidagi bog'liqlik ekonometrik model yordamida baholandi.

**ADABIYOTLAR SHARHI**

Ushbu mavzuda bir qancha tadqiqotchilar o'zlarining tadqiqot ishlarini olib borgan. Jumladan uzoq xorij olimlaridan ushbu mavzuda Linsu Kim tadqiqot olib borgan uning fikricha "Linsu Kimning ta'kidlashicha, Janubiy Koreya dastlab patent litsenziyalari, texnologiyalar transferi

<sup>[1]</sup> Jahon banki rasmiy sayti: <https://data.worldbank.org/indicator/GB.XPD.RSDV.GD.ZS?locations=KR>

<sup>[2]</sup> OECD (2023), OECD Reviews of Innovation Policy: Korea 2023, OECD Reviews of Innovation Policy, OECD Publishing, Paris,

va uskunarlar importi orqali xorijiy texnologiyalarni o'zlashtirgan. Keyinchalik korxonalar o'z ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga (R&D) faol investitsiya kiritish hisobiga mustaqil innovatsiyalar yaratish bosqichiga o'tgan. Muallifning fikricha, hukumat eksportni rag'batlantirish, texnologiyalar transferini qo'llab-quvvatlash va qulay institutsional muhit yaratish orqali ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, innovatsion rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi xususiy sektor bo'lgan. Natijada Janubiy Koreya yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha dunyoning yetakchi davlatlaridan biriga aylangan"[3].

Shuningdek yana bir uzoq xorijlik tadqiqotchi Alice H. Amsden ham bu borada tadqiqot olib borgan. Uning ta'kidlashicha "Janubiy Koreya iqtisodiy rivojlanishining asosini eksportga yo'naltirilgan sanoatlashuv strategiyasi tashkil etgan. Hukumat eksport salohiyatiga ega korxonalarni moliyaviy va institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlagan, biroq buning evaziga ulardan yuqori ishlab chiqarish samaradorligi va eksport ko'rsatkichlarini talab qilgan"[4].

Mahalliy tadqiqotchilardan Xamrayeva Sevinch Ikromjonovna ushbu mavzuda o'z tadqiqotlarini olib borgan. Tadqiqotchining fikricha "O'zbekiston uchun Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, tashqi savdo siyosatini to'g'ri yo'naltirish orqali qisqa va o'rta muddatda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish mumkin. Ayniqsa, eksportga yo'naltirilgan sanoatlashtirish, davlatning faol roli va bosqichma-bosqich tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillari sifatida namoyon bo'ladi"[5].

Shu bilan birga ushbu mavzuda mahalliy tadqiqotchilardan Saidasror G'ulamov Saidaxmedovich va Jo'rayev Jasur Shavkatovich ham tadqiqot olib borgan. Ularning ta'kidlashicha "eksport va import siyosati O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda olib borilayotgan tashqi savdo siyosati orqali milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va jahon bozorida raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkoniyati yaratilmoqda. Eksport siyosati orqali xorijiy valyuta tushumlari oshib, bu makroiqtisodiy barqarorlikni

ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, eksportni diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini kengaytirish mamlakat iqtisodiy salohiyatini yanada mustahkamlaydi."[6].

#### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Tashqi savdo samaradorligini baholashda savdo balansi eng muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkich eksport va import o'rtasidagi farqni ifodalab, mamlakatning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi, eksport salohiyati hamda tashqi iqtisodiy faoliyat natijalarini baholash imkonini beradi. Savdo balansining musbat bo'lishi mamlakat eksport hajmining importdan yuqori ekanligini, ya'ni tashqi savdo orqali qo'shimcha valyuta tushumlari shakllanayotganini bildiradi.


[3] On Linsu Kim's Imitation to Innovation: The Dynamics of Korea's Technological Learning (Boston: Harvard Business School Press, 1997)

[4] Asia's Next Giant: South Korea and Late Industrialization, Alice H. Amsden, Published: 25 June 1992

[5] Xamrayeva Sevinch Ikromjonovna "Tashqi savdo siyosati samaradorligini oshirishning xalqaro tajribasi" New innovations in national education jurnali 4-son 1-jild aprel – 2026 1-qism

[6] Jo'rayev Jasur Shavkatovich, Saidasror G'ulamov Saidaxmedovich, "eksport va import siyosati: o'zbekiston iqtisodiy rivojlanishida o'rni" academic research in modern science International scientific-online conference, 0058

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19657485>



### **1- Rasm. O'zbekiston va Koreya Respublikasining tashqi savdo balansining o'zgarish dinamikasi milliard AQSh dollarida<sup>[7]</sup>**

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2010–2024-yillarda O'zbekiston tashqi savdo balansida izchil manfiy saldo kuzatilgan. Tahlil qilinayotgan davr boshida savdo balansini nisbatan past darajada (-0,3 mlrd. AQSh dollari) bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda import hajmining eksportga nisbatan tezroq o'sishi natijasida manfiy saldo bosqichma-bosqich ortib borgan. Ayniqsa, 2021–2024-yillarda manfiy savdo balansini keskin chuqurlashib, 2023-yilda 17,7 mlrd. AQSh dollarini, 2024-yilda esa 17,4 mlrd. AQSh dollarini 2025-yilda 13.5 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Ushbu holat O'zbekiston tashqi savdosida importning eksportdan ustunligini hamda eksport salohiyatini oshirish va diversifikatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi. Agar ushbu tendensiya davom qiladigan bo'lsa 2026-yil yakunlariga borib O'zbekistonning tashqi savdo balansini 22.5 milliard AQSh dollari qiymatida manfiy saldoga yetishi mumkin.

2010–2024-yillar davomida Janubiy Koreyada eksport hajmi deyarli barcha yillarda import hajmidan yuqori bo'lgan. Natijada mamlakat tashqi savdo balansida asosan musbat saldo shakllanib, bu Janubiy Koreyaning tashqi savdo faoliyati barqaror va samarali ekanligini ko'rsatadi. Tahlil qilinayotgan davrda eksport hajmi 540 mlrd. AQSh dollaridan 831,9 mlrd. AQSh dollarigacha oshgan bo'lib, bu mamlakatning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi yuqori ekanligini tasdiqlaydi. 2022–2023-yillarda global iqtisodiy beqarorlik, energiya narxlarining oshishi hamda yarimo'tkazgichlar eksportining qisqarishi ta'sirida savdo balansida qisqa muddatli pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, 2024-yilda eksportning tiklanishi natijasida savdo balansini yana 76,4 mlrd. AQSh dollariga yetgan. Agar ushbu tendensiya davom qiladigan bo'lsa 2026-yil yakuniga borib mamlakat eksporti va importi o'rtasidagi farq 80.4 milliard AQSh dollarigacha yetishi mumkin. Ushbu natijalar Janubiy Koreya tashqi savdosining yuqori barqarorlikka ega ekanligini va mamlakat eksport salohiyati kuchli institutsional hamda texnologik asosga tayanishini ko'rsatadi. Rasm tahlili shuni ko'rsatadiki, Janubiy Koreyaning tashqi savdoda uzoq yillar davomida musbat savdo balansini saqlab qolishi mamlakat eksport salohiyatining yuqoriligidan dalolat beradi. Michael E. Porterning fikricha, mamlakatning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi tabiiy resurslar yoki arzon mehnat resurslariga emas, balki innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot faoliyati va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyatiga bog'liq. Muallifning ta'kidlashicha, yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish va ularning eksportini kengaytirish mamlakatning eksport salohiyatini oshiradi, xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi hamda uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Shu sababli innovatsiyalarga asoslangan tarmoqlarni rivojlantirish tashqi savdo samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi<sup>[8]</sup>. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yuqori

<sup>[7]</sup> Jahon banki rasmiy sayti: <https://www.worldbank.org/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi


<sup>[8]</sup> Porter M. E. *The Competitive Advantage of Nations*. – New York: Free Press, 1990. – 896 p.

texnologiyali mahsulotlar eksporti mamlakatning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi, eksport tushumlarini ko'paytiradi hamda tashqi savdo balansining barqarorligini ta'minlaydi. Aynan shu jihat Janubiy Koreya tashqi savdo modelining asosiy ustunligi hisoblanadi.

## **2-Rasm. Koreya Respublikasi va O'zbekiston' eksportida yuqori texnologiyalar ulushi jamiga nisbatan % hisobida<sup>[9]</sup>**

2-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2010–2024-yillar davomida Janubiy Koreya eksportida yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi barqaror ravishda yuqori darajada saqlanib qolgan. Tahlil qilinayotgan davr boshida ushbu ko'rsatkich 32 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda 36 %ga yetgan va keyingi yillarda ham asosan 30–36 % oralig'ida saqlangan. O'zbekistonda esa mazkur ko'rsatkich 2017-yilda 0.3% ga teng bo'lgan bo'lsa 2023-yilda 0.8% ga yetgan va 2024-yilda tushish kuzatilgan va 0.4% ga yetgan. Bu esa Janubiy Koreya eksportining katta qismi yuqori qo'shilgan qiymatga ega, innovatsion mahsulotlardan iborat ekanligini ko'rsatadi..

Rasm natijalari shuni ko'rsatadiki, Janubiy Koreyaning tashqi savdo samaradorligi, avvalo, xomashyo yoki past qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksportiga emas, balki yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportiga tayanadi. Aynan ushbu mahsulotlar eksport tushumlarining barqaror o'sishini, musbat savdo balansini hamda mamlakatning jahon




bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

OECD (2023) ma'lumotlariga ko'ra, Janubiy Koreyada ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga (R&D) yo'naltirilgan davlat investitsiyalari yuqori texnologiyali tarmoqlarning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Xususan, biotexnologiya yo'nalishiga ajratilgan davlat R&D xarajatlari 2007-yildagi 1,2 mlrd. AQSh dollaridan 2016-yilda 3,4 mlrd. AQSh dollariga oshgan. Natijada biotexnologiya sohasi mamlakatning eng tez rivojlanayotgan innovatsion tarmoqlaridan biriga aylangan. Ushbu sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar yuqori R&D intensivligi bilan ajralib turadi, chunki yangi biotexnologik mahsulotlarni yaratish uzoq muddatli ilmiy izlanishlar, katta moliyaviy resurslar va yuqori tavakkalchilikni talab etadi. Shu sababli hukumat tomonidan ko'rsatilayotgan uzluksiz moliyaviy qo'llab-quvvatlash xususiy sektorni yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va tijoratlashtirishga rag'batlantirgan. Buning natijasida biotexnologiya yo'nalishidagi startaplar soni 2010-yildagi 140 tadan 2016-yilda

<sup>[9]</sup>Jahon banki rasmiy sayti: <https://www.worldbank.org/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

440 taga yetgan, ya'ni uch baravardan ko'proq oshgan. Innovatsion faollikning kuchayishi ushbu tarmoqning eksport ko'rsatkichlarida ham yaqqol namoyon bo'lgan. Jumladan, Koreya biotexnologiya mahsulotlari eksporti 2016-yildagi 1,8 mlrd. AQSh dollaridan 2018-yilda 4,4 mlrd. AQSh dollariga yetib, ikki baravardan ortiq o'sgan. OECD ekspertlari buni davlat tomonidan R&D faoliyatiga yo'naltirilgan investitsiyalar, innovatsion ekotizimni qo'llab-quvvatlash hamda ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarish bilan samarali bog'lash natijasi sifatida



baholaydi. Mazkur misol Janubiy Koreyada R&D investitsiyalari nafaqat yangi texnologiyalarni yaratishga, balki yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va ularning eksport salohiyatini oshirishga ham xizmat qilganini tasdiqlaydi.<sup>[10]</sup>


### 3-Rasm. Koreya Respublikasi va O'zbekistonda Tadqiqot va ishlanmalarga sarflangan xarajatlarning YaIM ga nisbati jamiga nisbatan % hisobida<sup>[11]</sup>

3-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2010–2024-yillar davomida Janubiy Koreyada ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga (R&D) yo 'naltirilgan xarajatlarning YaIMdagi ulushi izchil o'sib borgan. Xususan, mazkur ko'rsatkich 2010-yildagi 3,18 foizdan 2024-yilda 5,0 foizgacha oshgan. Umuman olgan so'nggi 15 yillikda Janubiy Koreya YaIM ing o'rtacha 4.14% miqdorida tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlarni amalga oshirgan. Bu Janubiy Koreyaning innovatsion rivojlanish va texnologik taraqqiyotni iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilaganligini ko'rsatadi. O'zbekistonda esa ushbu ko'rsatkich tahlil qilinayotgan davr mobaynida 0,10–0,17 foiz oralig'ida saqlanib qolgan bo'lib, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga ajratilayotgan mablag'lar hajmi nisbatan past ekanligi kuzatiladi.

R&D xarajatlaridagi bunday sezilarli tafovut 3-rasmda keltirilgan yuqori texnologiyali va AKT mahsulotlari eksportidagi farqlarni izohlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirilgan investitsiyalar yangi texnologiyalarni yaratish, mahsulot sifatini oshirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada Janubiy Koreya elektronika, yarimo'tkazgichlar, telekommunikatsiya uskunalari va boshqa yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti bo'yicha dunyoning yetakchi davlatlaridan biriga aylangan

<sup>[10]</sup> OECD (2023), OECD Reviews of Innovation Policy: Korea 2023, OECD Reviews of Innovation Policy, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/bdcf9685-en>

<sup>[11]</sup> Jahon banki rasmiy sayti: <https://www.worldbank.org/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



#### 4-Rasm. Koreya Respublikasi va O'zbekiston rezidentlari tomonidan patentga berilgan arizalar soni (donada)<sup>[12]</sup>

4-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2010–2024-yillar davomida Janubiy Koreyada rezidentlar tomonidan berilgan patent arizalari soni yuqori darajada saqlanib, umumiy hisobda o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, 2010-yilda 131,8 mingta patent arizasi berilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 207,2 mingtaga yetgan. Faqat 2022-yilda ma'lumotlarda keskin pasayish kuzatilgan bo'lib, bu Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) ma'lumotlar bazasidagi statistik o'zgarishlar yoki ma'lumotlarni qayta tasniflash bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, 2023–2024-yillarda patent arizalari sonining yana 200 mingdan oshishi Janubiy Koreyada innovatsion faoliyatning yuqori darajada saqlanib qolganligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda esa rezidentlar tomonidan berilgan patent arizalari soni tahlil qilinayotgan davr davomida 257–525 dona oraliqida bo'lib, Janubiy Koreya ko'rsatkichlariga nisbatan bir necha yuz barobar kam ekanligi kuzatiladi. Bu esa mamlakatlarda ilmiy-tadqiqot faoliyati va innovatsion salohiyat o'rtasidagi sezilarli tafovut mavjudligini ko'rsatadi.

Patentlar sonining yuqoriligi Janubiy Koreyada R&D faoliyatiga yo'naltirilgan investitsiyalarning amaliy natijasini aks ettiradi. Patentlangan yangi texnologiyalar ishlab chiqarishga joriy etilib, yarimo'tkazgichlar, elektronika, telekommunikatsiya uskunalari va boshqa yuqori texnologiyali mahsulotlarni yaratishga xizmat qilgan. Natijada mamlakat eksportida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushi ortib, tashqi savdo balansining barqaror musbat bo'lishi ta'minlangan.

#### XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Janubiy Koreyaning tashqi savdo samaradorligiga erishishida eksport hajmining o'sishi bilan bir qatorda uning tarkibini yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar hisobiga diversifikatsiya qilish hal qiluvchi omil bo'lgan. Tahlillar natijasida Janubiy Koreyada 2010–2024-yillar davomida tashqi savdo balansining asosan musbat shakllangani, eksport hajmining importdan yuqori bo'lgani hamda mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi izchil mustahkamlanganligi aniqlandi. O'zbekistonda esa ushbu davr mobaynida savdo balansining manfiy bo'lib qolayotgani eksport salohiyatini oshirish va eksport tarkibini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

<sup>[12]</sup> Jahon banki rasmiy sayti: <https://www.worldbank.org/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Shuningdek, tadqiqot davomida Janubiy Koreya eksportida yuqori texnologiyali mahsulotlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) tovarlarining ulushi yuqori darajada saqlanib kelayotgani aniqlandi. Bu esa mamlakat eksportining asosan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarga tayanishini hamda tashqi savdo samaradorligining muhim omillaridan biri aynan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish ekanligini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bunday natijalarga erishishda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga (R&D) ajratilgan investitsiyalar hal qiluvchi rol o'ynagan. Janubiy Koreyada R&D xarajatlarining YaIMdagi ulushi 2024-yilda 5 foizga yetgan bo'lsa, O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich 0,1–0,17 foiz oralig'ida qolmoqda. R&D faoliyatiga yo'naltirilgan investitsiyalar natijasida patent arizalari sonining izchil ortishi yangi texnologiyalarni yaratish, ularni ishlab chiqarishga joriy etish hamda yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportini kengaytirishga xizmat qilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. On Linsu Kim's Imitation to Innovation: The Dynamics of Korea's Technological Learning (Boston: Harvard Business School Press, 1997)
2. Asia's Next Giant: South Korea and Late Industrialization, Alice H. Amsden, Published: 25 June 1992
3. Xamrayeva Sevinch Ikromjonovna "Tashqi savdo siyosati samaradorligini oshirishning xalqaro tajribasi" New innovations in national education jurnali 4-son 1-jild aprel – 2026 1-qism
4. Jo'rayev Jasur Shavkatovich, Saidasror G'ulamov Saidaxmedovich, "eksport va import siyosati: o'zbekiston iqtisodiy rivojlanishida o'rni" academic research in modern scienceInternational scientific-online conference, 0058  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19657485>
5. Porter M. E. *The Competitive Advantage of Nations*. – New York: Free Press, 1990. – 896 p.
6. OECD (2023), OECD Reviews of Innovation Policy: Korea 2023, OECD Reviews of Innovation Policy, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/bdcf9685-en>
7. Jahon banki rasmiy sayti: <https://www.worldbank.org/>